

# "O'zkimyosanoat" AJ Pokistonda bo'lib o'tayotgan "Made in Uzbekistan" milliy mahsulotlar ko'rgazmasida ishtirok etmoqda

// 12.02.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-pokistonda-bo-lib-o-tayotgan-made-in-uzbek>



Joriy yilning 11-fevral kuni Lahor shahrida O'zbekiston-Pokiston munosabatlari tarixida ilk bor "Made in Uzbekistan" milliy mahsulotlar ko'rgazmasi o'z ishini boshladi.

Ko'rgazmada elektrotexnika, qurilish materiallari, to'qimachilik, charm-poyabzal, mebel va yog'ochsozlik, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati va turizm kabi sohalarga ixtisoslashgan 100 ga yaqin O'zbekistonning yirik milliy kompaniyalari o'z mahsulotlarini namoyish qilmoqda.



Ko'rgazmadan "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq koxonalarida ishlab chiqarilayotgan keng turdagi mahsulotlar ham o'rin olgan.

Tadbir Pokistondagi biznes va sanoat vakillari bilan savdo aloqalarini rivojlantirishga va hamkorlikni yanada kengaytirish uchun o'ziga xos maydon bo'lmoqda.





Uning doirasida o'zaro savdo hajmini oshirish, manfaatli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish bo'yicha B2B va G2B muzokaralar o'tkazilmoqda.







"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati